






I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 38 742,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020 yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 6,2 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 foizga yetdi.



2020-2021 yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020 yil	2021 yil	
	I. YAHM	31 593,4	38 742,4	106,2
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 544,7	37 324,0	106,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 048,7	1 418,4	106,3
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 544,7	37 324,0	106,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 045,3	16 801,1	103,6
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 622,4	9 470,7	103,7
	sanoat	5 186,4	6 319,2	100,1
	qurilish	2 436,0	3 151,5	111,4
	Xizmatlar	8 877,0	11 052,2	112,5
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 205,3	2 667,6	108,6

		Mrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020 yil	2021 yil	
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 586,4	2 136,4	124,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	5 085,3	6 248,2	110,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 19 746,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,8 foizga yuqoridir.












2020-2021 yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 45,0 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 16,9 foizni, qurilish sohasida 8,4 foizni va xizmatlar sohasi 29,7 foizni tashkil qildi.

 2020-2021 yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)		2020 yil	2021 yil
I. YAHM		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,7	96,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	3,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	46,0	45,0
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)		25,0	25,3
	sanoat	17,0	16,9
	qurilish	8,0	8,4
Xizmatlar		29,0	29,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7,2	7,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,7
	boshqa xizmat tarmoqlari	16,6	16,9




2020-2021 yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil




2021- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (45,0 foiz), sanoatda 100,1 foiz (16,9 foiz), qurilishda 111,4 foiz (8,4 foiz), xizmatlar sohasida 112,5 foizni (29,7 foiz) tashkil etdi.


2020-2021 yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021 yilga YAHM deflyatori indeksi 2020 yildagi narxlarga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida 121,7 foiz va qurilishda tarmog'ida 116,2 foiz qayd etildi.



2020-2021 yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-2021 yillarda YAHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 75,4 %ni tashkil qildi (2020- yilda – 75,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.